



## LASTIK ASOSIDAGI ARQOQLI PRESS TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLISH TEXNOLOGIYAS

**R.T.Qurbonov**

Doktorant

**B.Mirusmanov**

Dotsent

**S.A.Primov**

Doktorant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11174451>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahalliy xomashyolardan samarali foydalanib yigirilgan paxta ipidan lastik to'qimalarini yangi tuzulishi va olish ussulari yaratildi. Yangi tuzulishli trikotaj to'qima turlarini ishlab chiqarish, to'qima assortimentini kengayishiga va mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradi, ichki va tashqi bozorni sifatli mahsulot bilan ta'minlaydi.

**Аннотация:** В данной статье разработана новая структура и способы получения пресс-уточного ластичного трикотажа из хлопчатобумажной пряжи, трикотажных полотен. Производство новых видов трикотажных полотен способствует расширению трикотажных ассортиментов, конкурентоспособности продукции, а также обеспечению внутреннего и внешнего рынка качественной продукцией.

**Abstract:** In this article, a new structure and methods of obtaining rubber fabrics from cotton yarn spun using local raw materials were created. The production of new types of knitted fabrics will expand the assortment of fabrics and increase the competitiveness of the product, providing the domestic and foreign markets with quality products.

Bugungi kunda to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoati mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Trikotaj to'qimalarini assortimentini kengaytirish, trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, homashyo sarfini kamaytirish va trikotaj to'qimalarining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bugungi kunda trikotaj sanoati olimlari oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Trikotaj to'qimalarini mahalliy homashyo turlaridan samarali foydalanib hom ashyo sarfi kam bo'lgan, shuningdek havo o'tkazuvchanligi, gigroskopikligi, kirishuvchanligi, hamda kam cho'ziluvchan, shakl saqlash xususiyati yuqori bo'lgan arqoqli lastik trikotaj to'qimalarini ishlab chiqariladi.

[1].Lastik asosida arqoqli press to'qimasi, asos to'qima tarkibiga qo'shimcha halqa elementlari qo'shilganligi bilan farq qiladi.



Lastik asosida arqoqli press to'qimasi, Xitoyning "LONG XING" firmasida ishlab chiqarilgan yassi ikki ignadonli "LXA-252" rusumli mashinaning texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta ipidan arqoqli lastik to'qimalarini olish usuli ishlab chiqildi.


Lastik asosida arqoqli press to'qimalari tarkibidagi arqoq iplari va press halqalari to'qimaning texnologik parametrlariga, fizik-mexanik hususiyatlatiga ta'sirini hamda, paxta ipini qo'llanish ko'lamini va mashinaning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida arqoqli va pressli lastik to'qimasining 3 ta variantini tuzilishi va olish usullari ishlab chiqildi.

Rejalashtirilgan arqoqli lastik trikotaj to'qimasini 3 variantini tuzilishi bir xil bo'lib, bu variantlar bir-biridan to'qima tarkibidagi xom ashyolarni chiziqli zichliklarini o'zgarishi bilan farq qiladi.

Arqoqli lastik trikotaj to'qimasi yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida quyidagi ketma-ketligi bo'yicha to'qildi.


Mashinaning halqa hosil qilish tizimi 1-qator chapdan o'nga va 2-qator o'ngdan chapga harakatlanib lastik to'qimasini to'qiydi, 3-qatorda, mashinaning to'qish tizimichapdan o'nga harakatlanib arqoq ipini lastik to'qimasining protyajkalari ustiga tashlaydi va orqa halqa qatoriga press halqasini to'qiydi, 4-qator o'ngdan chapga harakatlanib lastik to'qimasini to'qiydi va arqoq tashlaydi, 5-qator chapdan o'nga harakatlanib old halqa qatorlariga press halqasini to'qiydi va to'qimada shunday rapport 1-qatordan 5-qatorgacha davom etadi.

VII-Variant



a






b

Lastik asosidagi arqoqli press trikotaj to'qimasini VII-variantini tuzilishi (a) tuzilishi va grafik yozuvi (b)


Xitoyning LONG XING firmasida ishlab chiqarilgan LXA-252 rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida, to'qimaning asos halqalari chiziqli zichligi 20 teks x 3, press halqa ipining chiziqli zichligi 20 teks x 3 va arqoq ipining chiziqli zichligi 20 teks x 3 paxta kalava ipidan to'qib olingan yangi arqoqli lastik trikotaj to'qimasi. Xitoyning LONG XING firmasida ishlab chiqarilgan LXA-252 rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida, to'qimaning asos halqalari chiziqliy zichligi 20 teks x 3, press halqa ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 3 va arqoq ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta kalava ipidan to'qib olingan yangi arqoqli lastik trikotaj to'qimasini. Xitoyning LONG XING firmasida ishlab chiqarilgan yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasini to'quv tizimiga va konstruktiv tuzilishiga hech qanday o'zgartirish kiritmasdan mashinaning texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, arqoqli va pressli lastik trikotaj to'qimalarini III variant to'qib olindi.

## VIII-Variant



a






b

Lastik asosidagi arqoqli press trikotaj to'qimasini VIII-variantini tuzilishi (a) tuzilishi va grafik yozuvi (b)

Xitoyning LONG XING firmasida ishlab chiqarilgan LXA-252 rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to'quv mashinasida, to'qimaning asos halqalari chiziqliy zichligi 20 teks x 3, press halqa ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 3 va arqoq ipining chiziqliy zichligi 20 teks x 3 paxta kalava ipidan to'qib olingan yangi arqoqli lastik trikotaj to'qimasini. Bu variantlar bir-biridan to'qimaning rapportida iplarning chiziqliy zichliklari son ko'rsatkichlarini o'zgartirganligi bilan farq qiladi.


Bu turdagi to'qimalarni ishlab chiqarish mashinaning texnologik imkoniyatlarini kengaytradi, to'qimaturklarini ko'paytirish va bu to'qimalardan bolalar, ayollar va erkaklar yengil ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

### IX-Variant



a





b

Lastik asosidagi arqoqli press trikotaj to'qimasini VIII-variant tuzilishi (a) va grafik yozuvi (b)

**Xulosa.** Mahalliy xomashyolardan samarali foydalanib yigirilgan paxta ipidan lastik to'qimalarini yangi tuzulishi va olish ussularini yaratildi. Yangi tuzulishli trikotaj to'qima turlarini ishlab chiqarish, to'qima assortimentini kengayishiga va mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradi, ichki va tashqi bozorni sifatli mahsulot bilan ta'minlaydi.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Мукимов М.М., Ханходжаева Н.Р. Четырехластичный трикотаж // Проблемы текстиля, 2004, № 3, с.50-53.
2. Кукин Г.Н., Соловьев А.Н. Текстильное материаловедение. 1958 г.С-134.
3. Qurbonov R.T., Mirusmanov B., Primov S.A. Arqoqli lastik trikotaj to'qimasini olish texnologiyasi. //"Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda dual ta'limning o'rni hamda fan, ta'lim, ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar". 2023 yil 1-qism 182-186 b.